KIMYO

Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun qisqacha ma'lumotnoma

TOSHKENT
«NISO PILIGRAF»
2013

УДК: 54(038)
КБК 24.1
К42

Tuzuvchilar:
O.Yu. Iskandarov, Yu.T. Toshpo'latov, G. Shoisayeva

Ma'lumotnoma Respublika Ta'lim markazi, kimyo bo'yicha IMK tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:
N.G. Rahmatullayev — Nizomiy nomidagi TDPU kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasi professori;
I.E. Shernazarov — ToshPTI qoshidagi akademik litsey kafedra mudiri.

dotsent **N.Sh. Turdiyev** tahriri ostida.

Ma'lumotnoma umumiy o'rta ta'lim maktablari, kimyo fani chuqur o'rganiladigan sinflar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, o'qituvchilari hamda kimyo fani bilan mustaqil ravishda shug'ullanuvchilar uchun mo'ljallangan. Ma'lumotnomada barcha ta'riflar, qoidalar, kimyoviy formulalar, reaksiyalar, moddalarning olinishi va ishlatilishiga doir nazariy hamda amaliy materiallar keltirilgan.

Ma'lumotnoma oraliq va bosqichli nazoratlarni, yakuniy attestatsiyani va oliy o'quv yurtlariga kirishdagi test savollarini yechishga muvaffaqiyatli tayyorlanishda katta yordam beradi.

К42 **Kimyo:** oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun qisqacha ma'lumotnoma/ tuzuvchilar: O.Yu. Iskandarov, Yu. T. Toshpo'latov, G. Shoisayeva. — T.: «Niso poligraf», 2013. — 112 b.

Iskandarov, O.Yu.\tuzuvchi\
Toshpo'latov, Yu.T.\tuzuvchi\
Shoisayeva, G.\tuzuvchi\

УДК: 54(038)
КБК 24.1ya729

ISBN 978-9943-4044-7-2

DAVRIY QONUN VA ATOM TUZILISHI HAQIDAGI TASAVVURLAR ASOSIDA D. I. MENDELEYEVNING KIMYOVIY ELEMENTLAR DAVRIY SISTEMASI

1869-yilda D. I. Mendeleyev quyidagi qonunni topadi: oddiy jismlarning xossalari hamda elementlarning birikish shakli va xossalari elementlarning atom og'irliklari kattaliklari bilan davriy ravishda bog'langan bo'ladi.

D. I. Mendeleyev o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha elementlarni atomlarning nisbiy massalari ortib borishi tartibida joylashtirganda ularning xossalari davriy ravishda o'zgarishini kuzatgan.

1911-yilda ingliz olimi E. Rezerford eksperimental ravishda, atom markazida musbat zaryadlangan yadro bo'lishini hamda yadroning zaryadi, elementning D. I. Mendeleyev davriy sistemasidagi tartib nomeri bilan mos tushishini isbotladi.

Keyingi tajribalar (radioaktivlikni o'rganish bo'yicha) atom yadrosida ikki turdagi zarra — proton (+1 zaryadga va massasi 1) va neytron (zaryadsiz va massasi 1) borligini ko'rsatdi. Atom elektr jihatidan neytral bo'lganligidan elektronlar (zaryadi — 1) soni, atom yadrosidagi protonlar soniga teng.

Bundan, kimyoviy element — bir xil zaryadga ega bo'lgan yadroli atom ekanligi kelib chiqadi. Elektronlarning yadrodan yaqin yoki uzoq joylashishiga qarab energiyalari va elektron bulut (orbitalari) shakli turlicha bo'ladi. Elektronlar energiyani bosh kvant soni bilan belgilangan miqdorda beradi yoki oladi. Bosh kvant soni butun sonlar — 1, 2, 3 va h.k. bilan ifodalanadi. Birinchi energetik sathda joylashgan elektronlar minimal energiyaga ega bo'ladi.

Berilgan energetik sathda bo'lgan elektronlarning maksimal soni $N=2n^2$ formula bilan aniqlanadi. Bunda, n — sath nomeri (bosh kvant soni).

Birinchi energetik sathda 2 ta, ikkinchisida 8 ta, uchinchisida 18 ta va h.k. sondagi elektronlar bo'ladi.

Elektron buluti sfera shaklida bo'lgan elektronlarni *S* elektronlar, gantel shaklidagi bulut bo'lsa, *p* elektronlar deyiladi. Har bira orbitalda ikkitadan ortiq elektron bo'lmaydi.

Birinchi energetik sathda faqat bitta *S* orbital, ikkinchi sathda bitta *S* orbital va uchta *p* orbital, uchinchi sathda bitta *S* orbital, uchta *p* orbital va beshta *d* orbital bo'ladi.

D. I. Mendeleyev davriy sistemasi yettita davrdan (gorizontal joylashgan elementlar qatori) va sakkizta guruhdan (vertikal joylashgan elementlar qatori) iborat.

1—3 davrlar kichik davr deyilib, u bitta qatordan tashkil topgan hamda unda ikkita element (H, He) bor. 2 va 3 da sakkizta element bor. 4—7 davrlar ikki qatordan iborat. Yettinchi davr tugamagan. Har bir guruhda elementlarni ikkita guruhchaga ajratiladi — asosiy va qo'shimcha.

Kichik davrlar — 2 va 3 da ayrim qonuniyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular boshqa davrlarda ham bor.

Har bir davr ishqoriy metall bilan boshlanib, inert gaz bilan tugaydi.

Chapdan o'ngga qarab tartib nomeri ortishi bilan:

— elektromanfiyligi ortadi,
— atom radiusi kamayadi,
— metallik xossasi susayadi,
— metallmaslik xossasi kuchayadi.

Bosh guruhchalarda elementning tartib nomeri ortishi bilan qutidagi qonuniyatlar kuzatiladi:

— elektromanfiylik kamayadi,
— atom radiusi ortadi,

— metallik xossasi kuchayadi,

— metallmaslik xossasi susayadi.

D. I. Mendeleyev o'z jadvalini ishlash jarayonida hali topilmagan uchta elementning o'rnini va xossalarini ta'riflab o'tgan. Ularni keyingi 15 yil ichida Fransiya, Germaniya va Shvetsiyada topishadi.

№ 31 — galliy, 1875-yilda P. Lekok de Buabodron.

№ 21 — skandiy, 1880-yilda L. Nilson.

№ 32 — germaniy, 1886-yilda K. Vinkler.

Eng ko'p ishlatiladigan kimyoviy elementlar

Atom nomeri	Nomi	Simvoli	Atom massasi, At	Topilgan yil	Yer qobig'ida tarkibiy uchrashi, %
1	Vodorod	H	1,0079	1766	0,152
2	Geliy	He	4,0026	1895	$8\ 10^{-7}$
6	Uglerod	C	12,011	—	0,048
7	Azot	N	14,007	1772	0,0025
8	Kislorod	O	15,999	1775	47,1
11	Natriy	Na	22,99	1807	2,3
13	Aluminiy	Al	26,981	1825	8,2
14	Kremniy	Si	28,086	1823	27,7
15	Fosfor	P	30,974	1669	0,1
16	Oltingugurt	S	32,064	—	0,026
17	Xlor	Cl	35,453	1774	0,013

Davomi

19	Kaliy	K	39,098	1811	2,1
20	Kalsiy	Ca	40,08	1808	4,1
25	Marganes	Mn	54,938	1774	0,095
26	Temir	Fe	55,847	—	4,1
29	Mis	Cu	63,546	—	0,005
30	Rux	Zn	65,39	—	0,0075
31	Brom	Br	79,904	1826	$3{,}7 \cdot 10^{-5}$
47	Kumush	Ag	107,868	—	$7 \cdot 10^{-6}$
50	Qalay	Sn	118,69	—	$2{,}2 \cdot 10^{-5}$
53	Yod	I	126,904	1811	$1{,}4 \cdot 10^{-5}$
79	Oltin	Au	196,967	—	$1{,}1 \cdot 10^{-7}$
80	Simob	Hg	200,59	—	$5 \cdot 10^{-6}$
82	Qo'rg'oshin	Rb	207,19	—	0,0014
92	Uran	U	238,03	1840	$2{,}4 \cdot 10^{-4}$

Kimyoviy moddalarning tozaligi

Kimyoviy element deyilsada, tabiatda ular, asosan, birikmalar ko'rinishida uchraydi. Ularni sanoat miqyosida yoki laboratoriyalarda maxsus tozalanadi. Kimyoviy sanoatda ishlab chiqilgan moddalarga *kimyoviy reaktivlar* deyiladi. Ulardagi aralashmalar miqdoriga ko'ra bir qancha tasniflarga bo'linadi.

Kimyoviy reaktiv sifati

Tasnifi	Belgilanishi	Asosiy modda miqdori massa bo'yicha 1000 hissadan
Texnik	t	—
Toza	T	980 dan kam emas
Analiz uchun toza	a.u.t	990 dan kam emas
Kimyoviy toza	k.t.	990 dan ortiq
Maxsus toza	m.t	999 dan ortiq

Reaktivlar yorlig'ida unga tegishli ma'lumotlar keltiriladi. Unda, shuningdek, zaharliligi haqida ham ma'lumot beriladi. Toza suv va osh tuzidan boshqa barcha moddalar zaharli. Hatto 0,5 kg dan ortiq iste'mol qilingan shakar ham odamni zaharlaydi.

D. I. MENDELEYEVNING KIMYOVIY

DAVR-LAR	QATOR-LAR	E L E M E N T				
		I	II	III	IV	V
1	1	H 1 VODOROD 1,008				
2	2	Li 3 LITIY 6,941	Be 4 BERILLIY 9,012	B 5 BOR 10,811	C 6 UGLEROD 12,011	N 7 AZOT 14,00
3	3	Na 11 NATRIY 22,990	Mg	Al 13 ALYUMINIY 26,981	Si 14 KREMNIY 28,086	P 15 FOSFOR 30,974
4	4	K 19 KALIY 39,098	Ca	Sc 21 SKANDIY	Ti TITAN	V VANADIY
	5	Cu 29 MIS	Zn 30 RUX	Ga 31 GALLIY 69,72	Ge 32 GERMANIY 72,59	As 33 MISHYAK 74,922
5	6	Rb 37 RUBIDIY	Sr STRONSIY	Y	Zr	Nb
	7	Ag 47 KUMUSH	Cd KADMIY	In 49 INDIY 114,82	Sn 50 QALAY 118,69	Sb 51 SURMA 121,75
6	8	Cs 55 SEZIY	Ba BARIY	La LANTAN	Hf 72 GAFNIY	Ta TANTAL
	9	Au OLTIN	Hg 80 SIMOB	Tl 81 TALLIY 204,37	Pb 82 QO'RG'OSHIN 207,2	Bi 83 VISMUT 208,980
7	10	Fr 87 FRANSIY [223]	Ra 88 RADIY [226]	Ac AKTINIY [227]	Ku [261] KURCHATOVIY	(Ns) [260] NILSBORIY
YUQORI OKSIDLARI		R_2O	RO	R_2O_3	RO_2	R_2O_5
UCHUVCHAN VODORODLI BIRIKMALARI					RH_4	RH_3

* L A N T A N O I D L A R 58-71

Ce 58 SERIY 140,12	Pr 59 PRAZEODIM 140,908	Nd 60 NEODIM 144,24	Pm 61 PROMETIY [145]	Sm 62 SAMARIY 150,4	Eu 63 EVROPIY [151,96]	Gd 64 GADOLINIY 157,25

** A K T I N O I D L A R 90-103

Th 90 TORIY 232,038	Pa 91 PROTAKTINIY 231,036	U 92 URAN 238,029	Np 93 NEPTUNIY [237,048]	Pu 94 PLUTONIY [244]	Am 95 AMERITSIY [243]	Cm 96 KYURIY [247]

ELEMENTLAR DAVRIY JADVALI

G R U P P A L A R I						
VI	VII	VIII				
	(H)				He 2 GELIY 4,0026	K
O 8 KISLOROD 15,999	F 9 FTOR 18,998				Ne 10 NEON 20,179	L K
S 16 OLTINGU-GURT 32,064	Cl 17 XLOR 35,453				Ar 18 ARGON 39,948	M L K
Cr 24 XROM 51,996	Mn 25 MARGANES 54,938	Fe 26 TEMIR 55,847	Co 27 KOBALT 58,933	Ni 28 NIKEL 58,70		N M L K
Se 34 SELEN 78,96	Br 35 BROM 79,904				Kr 36 KRIPTON 83,80	N M L K
Mo 42 MOLIBDEN 95,94	Tc 43 TEXNETSIY 98,906	Ru 44 RUTENIY 101,07	Rh 45 RODIY 102,905	Pd 46 PALLADIY 106,4		O N M L K
Te 52 TELLUR 127,60	I 53 YOD 126,904				Xe 54 KSENON 131,30	O N M L K
W 74 VOLFRAM [illegible]	Re 75 RENIY 186,207	Os 76 OSMIY 190,2	Ir 77 IRIDIY 192,22	Pt 78 PLATINA 195,09		P O N M L K
Po 84 POLONIY [209]	At 85 ASTAT [210]				Rn 86 RADON [222]	P O N M L K
						Q P O N M L K
RO_3	R_2O_7	RO_4				
H_2R	HR					

Tb 65 TERBIY 158,925	Dy 66 DISPROZIY 162,50	Ho 67 GOLMIY 164,930	Er 68 ERBIY 167,26	Tm 69 TULIY 168,934	Yb 70 ITTERBIY 173,04	Lu 71 LYUTETSIY 174,967	P O N M L K

Bk 97 BERKLIY [247]	Cf 98 KALIFORNIY [251]	Es 99 EYNSHTEYNIY [254]	Fm 100 FERMIY [257]	Md 101 MENDELEVIY [258]	(No) 102 NOBELIY [255]	(Lr) 103 LOURENSIY [256]	Q P O N M L K

UMUMIY KIMYO

ASOSIY KIMYOVIY TUSHUNCHALAR

Atom — kimyoviy elementning oddiy va murakkab moddalar molekulasi tarkibiga kiruvchi eng kichik zarra. Atom — kimyoviy elementning xossasini saqlaydigan eng kichik zarra. **Atom** — musbat zaryadlangan yadro va manfiy zaryadlangan elektronlardan iborat elektroneytral zarra.

Molekula — muayyan moddaning kimyoviy xossalarini o'zida saqlab qoladigan eng kichik zarra.

Kimyoviy element — yadro zaryadi bir xil bo'lgan atomlar turi.



Oddiy modda — bitta elementning atomlaridan hosil bo'lgan moddalar.

Allotropiya — bir xil kimyoviy element atomlarining ikki yoki undan ortiq oddiy modda hosil qilish xususiyati.

KIMYOVIY FORMULALAR

Kimyoviy formula — modda tarkibini kimyoviy belgilar va indekslar bilan ifodalanishi. Modda molekulasida nechta atom borligini ko'rsatadigan songa, indeks deyiladi.

Shved kimyogari Y.Berselius taklijiga ko'ra kimyoviy elementlarni elementning lotin harflari bilan yozilgan nomining bosh harfu yoki undan keyin keluvchi harfi bilan birgalikda olingani bilan belgilash qabul qilingan. M.Vodorod — hydrogenium H, simob — hydrargyrum — Hg.

Kimyoviy formulalar emperik, molekular, grafik, elektron va molekular strukturalarga bo'linadi.

Emperik formulalar — moddaning tarkibida element atomlarining oddiy nisbati.

Molekular formula — molekuladagi atomlar sonini aks ettiradi, lekin uning atomlari orasidagi bog'lanishni aks ettirmaydi.

Grafik formula — molekuladagi atomlar orasida bog'lanish hosil qilishda qatnashgan elektron juftlarning har birini valent chiziqlar orqali ifodalash. Ular atomlar orasidagi bog'larni aks ettiradi, biroq molekulalarning geometrik shaklini, undagi atomlarning fazoviy holatlarini aks ettirmaydi.

Elektron formula — molekuladagi atomlar har birining tashqi valent pog'onachasidagi bog'lovchi va taqsimlanmagan elektronlari aks ettirgan tuzilish formulaga o'xshash ko'rinishga ega.

Molekular struktura formula — molekuladagi atomlar orasidagi masofalar, valent burchaklarning kattaligi haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradi.

Kimyoviy formulalarga misollar

Moddaning nomlanishi	Molekular formulasi	Emperik formulasi	Grafik formulasi
oltingugurt (IV) oksidi	SO_2	SO_2	O=S=O
vodorod peroksid	H_2O_2	HO	H—O—O—H
sirka kislota	$C_2H_4O_2$	CH_2O	

KIMYOVIY TENGLAMALAR

$$aA + bB = cC + dD$$

bunda: a,b,c,d — stexiometrik koeffitsientlar; A, B, C, D — kimyoviy moddalar.

Kimyoviy reaksiyalar.

Bir moddadan ikkinchi modda hosil bo'ladigan hodisaga, kimyoviy reaksiya deyiladi. Ulan asosiy to'rt turda bo'ladi.

1. Parchalanish (Ajralish) reaksiyalari. Kimyoviy reaksiya davrida bir moddadan ikkita yoki birnechta boshqa moddalar hosil bo'lsa uni ajralish reaksiyasi deyiladi.

$$A \rightarrow B + C + ...$$

$$CaCO_3 \xrightarrow{t} CaO + CO_2$$

$$2H_2O \xrightarrow{el} 2H_2 + O_2$$

$$2KMnO_4 \xrightarrow{t} K_2MnO_4 + MnO_2 + O_2$$

2. Birikish reaksiyasi. Kimyoviy reaksiyada ikkita yoki birnechta moddalardan bitta yangi modda hosil bo'lsa unga birikish reaksiyasi deyiladi.

$$A + B + ... \rightarrow C$$

$$2H_2 + O_2 \rightarrow 2H_2O$$

$$CaO + CO_2 \rightarrow CaCO_3$$

$$4Fe + 6H_2O + 3O_2 \rightarrow 4Fe(OH)_3$$

3. O'rin olish reaksiyasi. Oddiy va murakkab modda orasida borayotgan kimyoviy reaksiyada, oddiy modda atomi, murakkab modda elementidagi atom o'rnini egallasa, unga o'rin olish reaksiyasi deyiladi.

$$A_{\text{oddiy modda}} + B_{\text{mur.modda}} \rightarrow C_{\text{oddiy modda}} + D_{\text{mur.modda}}$$

$$Fe + CuSO_4 \rightarrow Cu + FeSO_4$$

$$Zn + H_2SO_4 \rightarrow H_2 + ZnSO_4$$

4. Almashinish reaksiyasi. Kimyoviy reaksiyada, ikkita murakkab modda tarkibiy qismlarini almashtirsa, unga almashinish reaksiyasi deyiladi.

$$A_{\text{mur.modda}} + B_{\text{mur.modda}} \rightarrow C_{\text{mur.modda}} + D_{\text{mur.modda}}$$

$$AgNO_3 + NaCl \rightarrow \downarrow AgCl + NaNO_3$$

$$BaCl_2 + H_2SO_4 \rightarrow \downarrow BaSO_4 + 2HCl$$

Reaksiya unumini hisoblash formulasi:

$$\tau(A) = \frac{m_{amal}(A)}{m_{naz.}(A)} \cdot 100\%; \quad \tau(A) = \frac{V_{amal}(A)}{V_{naz.}(A)} \cdot 100\%$$

Jismlarning shakli yoki moddalarning agregat holati o'zgarib, tarkibi o'zgarmay qoladigan hodisaga ***gizik hodisa*** deyiladi.

NISBIY ATOM, MOLEKULAR MASSA. MOL. MOLAR MASSA

Atom massa birligi (a.m.b.) deyilganda, massa soni 12(^{12}C) ga teng bo'lgan uglerod izotopi massasining $\frac{1}{12}$ qismiga teng birlik tushuniladi.

1 a.m.b. = m (^{12}C)/12=1,66067·10^{-27}kg = 1,66067·10^{-24} g

Elementning nisbiy molar (yoki atom) massasi deyilganda, shu molekula (yoki atom) massasining uglerod atomi m_{oc} massasining $\frac{1}{12}$ qismiga nisbati tushuniladi:

$$M_r = \frac{m(mol.)}{1\,a.m.b.};\quad A_r = \frac{m(atom)}{1\,a.m.b.};\quad A_r(O) = \frac{m(O)}{1{,}66067\cdot 10^{-27}\,kg} = 16$$

Atomning absolut massasi deyilganda, atomining kilogrammlarda ifodalangan qiymati tushuniladi:

$$m(O) = Mr\cdot 1\ a.m.b. = 16\cdot 1{,}66067\cdot 10^{-27}kg = 26{,}57\cdot 10^{-27}kg$$

Birikmaning nisbiy molekular massasi:

$$M_r = \frac{m(molekula)}{1\,a.m.b.};\quad M_r(H_2O) = \frac{m(H_2O)}{1{,}66067\cdot 10^{-27}\,kg} = 18$$

Molekulaning absolut massasi deyilganda, molekulaning kilogrammlarda ifodalangan qiymati tushuniladi:

m(molekula) = $M_r\cdot 1$ m.a.b.; m(H_2O) = 18·1,66067·10^{-27}kg = 29,89206·10^{-27} kg.

Modda miqdori (mol):

$\nu = \frac{m}{M}$; bunda: m — modda massasi(g); M — molar massa (g/mol).

$N = \frac{m}{M} N_A$; bunda: N — m kg moddadagi zarralar soni (atom, molekula, ion)

N_A — 6,023·10^{23} mol^{-1} Avogadro doimiysi bo'lib, 1 mol moddadagi zarralar soni.

Moddaning molar massasi (g/mol) deyilganda, moddaning bir moliga to'g'ri kelgan massasini kilogrammlarda ifodalangan qiymati tushuniladi.

$M = m_0 N_A$; bunda: m_0 — bitta molekula massasi.

Biror modda tarkibidagi elementning massa ulushi:

$A_xB_yC_z$ $\qquad\qquad$ H_2SO_4

$$\omega(A) = X \cdot \frac{Ar(A)}{Mr(A_xB_yC_z)} \qquad \omega(H) = \frac{Ar(2H)}{Mr(H_2SO_4)} = \frac{2}{98} = 0{,}024$$

GAZ QONUNLARI

Mendeleyev — Klapeyron tenglamasi:

$$pV = \nu RT; \quad \nu = \frac{m}{M}; \quad pV = \frac{m}{M} RT$$

bunda: p — bosim; V — hajm; ν — modda miqdori; R — gazlarning universal doimiysi(R=8,314 J/mol·K); T — absolut temperatura; m — gaz massasi; M — gazning molekular massasi.

Boyl — Mariott qonuni — agar ma'lum bir massali gazning temperaturasi o'zgarmasa, gaz bosimi bilan hajmining ko'paytmasi o'zgarmaydi.

pV=const; yoki $p_1V_1 = p_2V_2$, bunda T=const.

Gey-Lyussak qonuni (1802-y) — agar ma'lum bir massali gazning bosimi o'zgarmasa, gaz hajmining temperaturasiga nisbati o'zgarmaydi:

$$p = \text{const.} \quad \boxed{\frac{V}{T} = \text{const}} \quad \text{yoki} \quad \frac{V_1}{T_1} = \frac{V_2}{T_2}.$$

Sharl qonuni (1787-y) — agar ma'lum bir massali gazning hajmi o'zgarmasa, gaz bosimining temperaturaga nisbati o'zgarmaydi:

V=const; $\frac{p}{T} = \text{const}$ yoki $\frac{p_1}{p_2} = \frac{T_1}{T_2}$.

Birlashgan gaz qonuni:

$$\frac{pV}{T} = \text{const} \quad \text{yoki} \quad \frac{p_1V_1}{T_1} = \frac{p_2V_2}{T_2}.$$

Avogadro qonuni (1811-y) — bir xil sharoitda, ya'ni bir xil temperatura va bir xil bosimda teng hajmda olingan gazlarda molekulalar soni teng bo'ladi:

Gazning molar hajmi: har qanday gazning bir moli normal sharoitda ($p = 101{,}325$ kPa, $t° = 0°C$) 22,4 l hajmni egallaydi:

$$V_m = \frac{V}{n} = \frac{RT}{p}.$$

Gazning zichligi:

$$\rho = \frac{M}{V_m}$$

Bunda: M — molar massa; V_m — molar hajm.

«A» gazning aralashmadagi hajmiy ulushi:

$$\varphi(A) = \frac{V(A)}{V(A)+V(B)+...}; \qquad \varphi = \frac{\upsilon(A)}{\upsilon(A)+\upsilon(B)+...}$$

Bunda: V — gaz hajmi; υ — gazning modda miqdori.

Gazlar aralashmasining o'rtacha molekular massasi:

$$M_{o\,r.} = \frac{\nu_1 \cdot M_1 + ... + \nu_n \cdot M_n}{\nu_1 + ... + \nu_n}; \qquad (1)$$

$$M_{o\,r.} = \frac{V_1 \cdot M_1 + ... + V_n \cdot M_n}{V_1 + ... + V_n}; \qquad (2)$$

$$M_{o'r.} = \varphi_1 \cdot M_1 + ... + \varphi_n \cdot M_n. \qquad (3)$$

Bunda: M — gazning molar massasi; ν — gazning modda miqdori; V — gazning hajmi; φ — gazning hajmiy ulushi.

ATOM TUZILISHI

Izotop — yadro zaryadlari bir xil, lekin atom massalari turlicha bo'lgan kimyoviy elementlar turkumi.

Masalan: $^{204}_{82}Pb$, $^{206}_{82}Pb$, $^{207}_{82}Pb$, $^{208}_{82}Pb$.

Izobarlar — elementlar massa sonlari o'zaro teng, lekin yadro zaryadlari har xil bo'lgan elementlar turkumi.

Masalan: $^{40}_{19}Ca - {}^{40}_{18}Ar$; $^{54}_{24}Cr - {}^{54}_{26}Fe$; $^{123}_{51}Sb - {}^{123}_{52}Te$.

Izotonlar — atomlar yadrosida neytronlar soni bir xil, ammo protonlar soni bilan farqlanadigan elementlar.

Masalan:

$^{136}_{54}Xe(54p+82n) - ^{138}_{56}Ba(56p+82n) - ^{139}_{57}La(57p+82n)$.

Eynshteyn formulasi: zarraning massasini uning energiyasi bilan bog'laydi.

$E=mc^2$; m — zarra massasi; c — $3\cdot10^8$ m/s yorug'lik tezligi.

Atom yadrosi tarkibi: A — massa soni.

$$A = Z + N,$$

bunda: Z — protonlar soni; N — neytronlar soni.

Massa deffekti:

$$\Delta m = Z\cdot M_p + (A-Z)\ M_n - M,$$

bunda: Z — protonlar soni; M_p va M_n — jami protonlar va neytronlar massasi; A — massa soni; M — yadroning tajriba asosida olingan massasi.

Radioaktiv α — yemirilish: α — zarra (^4_2He)

$$^A_zX \rightarrow {}^{A-4}_{z-2}Y + {}^4_2He.$$

Radioaktiv β — yemirilish:

$^A_zX \rightarrow {}^A_{z+1}Y + {}^0_{-1}e + \overline{\upsilon}$; $\overline{\upsilon}$ — antineytrino.

QONUNLAR

Mozli qonuni. Elementlarning rentgen spektrlaridagi xarakterli chiziqlariga to'g'ri keladigan tebranishning kvadrat ildizidan olingan qiymat elementning D. I. Mendeleyev sistemasidagi tartib raqamiga bog'liq bo'ladi:

$$\sqrt{\upsilon} = a(z-b)$$

a va b lar doimiy kattaliklar bo'lib, $a-2{,}48\cdot10^{15}$; $b-1$; z — elementning tartib raqami.

N. Borning I postulati: *atom sistemasi faqat maxsus statsionar holatda bo'lishi mumkin. Bu holatning har biriga aniq bir E_n energiya mos keladi. Atom statsionar holatda nur chiqarmaydi va yutmaydi.*

$$m\vartheta r = n\left(\frac{h}{2\pi}\right);$$

bunda: m — erkin elektron massasi; ϑ — elektron tezligi, r — orbita radiusi; h — Plank doimiysi.

N. Borning II postulati: *atom bir statsionar holatdan ikkinchisiga o'tganda elektromagnit energiya kvantini yutadi yoki chiqaradi.*

$$E_n - E_m = h\nu$$

E_n, E_m lar n va m orbitadagi elektronlar energiyalari.

ν — yorug'lik chastotasi.

$E_n = -\frac{2\pi^2 \cdot me^4}{h^2} \cdot \frac{1}{n^2} = -\frac{13{,}6\,eV}{n^2}$ bunda, $e = 1{,}6 \cdot 10^{-19}$C;

de Broyl formulasi: $\lambda = \frac{h}{m\vartheta}$

Elementar zarralar ham zarra, ham to'lqin tabiatiga ega.

Geyzenbergning noaniqlik prinsipi:

$$\Delta x \cdot \Delta(m\vartheta) > \frac{h}{4\pi}.$$

Elektronning impulsi yoki tezligi qanchalik aniqlik bilan topilsa, uning koordinatalari shunchalik noaniqlik bilan o'lchanadi.

KVANT SONLAR

Bosh kvant son — n ma'lum tartibda joylashgan energetik pog'onalarning tartib raqamini ifodalovchi va uning qabul qiladigan qiymatlari butun ratsional ketma-ketligidan iborat:

n — 1, 2, 3, 4, 5, 6.....∞

Energetik pog'onalardagi elektronlar soni $2n^2$ formula yordamida aniqlanadi.

Orbital kvant son — l

$l = 0, 1, ...n - 1$

$l = 0$ bo'lsa, s

$l = 1$ bo'lsa, p

$l = 2$ bo'lsa, d

$l = 3$ bo'lsa, f bilan ifodalanadi. Yana u pog'onacha tarkibiga kiruvchi orbitallar shaklini ham ifodalaydi.

Magnit kvant son — m elektron orbitallarning fazoviy holatini ifodalaydi. $m = 2l + 1$.

Spin kvant son — s elektronning o'z o'qi atrofida aylanishini ifodalaydi. Elektronning o'z harakat momenti miqdorining tanlangan o'qqa bo'lgan proyeksiyasiga spin kvant son deviladi.

$+\frac{1}{2}$ yoki $-\frac{1}{2}$; ↑↓

Atomdagi kvant sonlar *(jadval)*

n	l	m_e	m_s	Qavatchalardagi elektron	Maksimal
1	2	3	4	5	6
1	0	0	$+\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}$	2(s)	2
2	0	0	$+\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}$	2(s)	8
	1	+1; 0; −1	$+\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2};$	6(p)	
3	0	0	$+\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}$	2(s)	18
	1		$+\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2};$	6(p)	
	2	+2; +1; 0; −1; 2	$+\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}$	10(d)	18
4	0	0	$+\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}$	2(s)	32
	1	+1; 0; −1	$+\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2};$	6(p)	
4	2	+2; +1; 0; −1; 2	$+\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}; +\frac{1}{2}; -\frac{1}{2}$	10(d)	

1	2	3	4	5	6
	3	+3; +2; +1; 0; −1; −2; −3	$+\frac{1}{2};\ -\frac{1}{2};\ +\frac{1}{2};\ -\frac{1}{2};\ +\frac{1}{2};\ -\frac{1}{2};\ +\frac{1}{2};\ -\frac{1}{2};\ +\frac{1}{2};\ -\frac{1}{2};$ $-\frac{1}{2};\ +\frac{1}{2};\ -\frac{1}{2};\ +\frac{1}{2};\ -\frac{1}{2}$	14(f)	

Atom orbitallarning elektron bilan to'lish tartibi:

$1s\,2s\,2p\,3s\,3p\,4s\,3d\,4p\,5s\,4d\,5p\,6s\,4f\,5d\,6p\,7s\,6d$

Pauli prinsipi: atomda to'rtta kvant soni bir xil bo'lgan ikkita elektron bo'lishi mumkin emas.

n^2 — pog'onadagi orbitallar soni.

$N_e = 2n^2$ pog'onalardagi elektronlar soni.

$2(2l+1)$ — pog'onachalardagi elektronlar soni.

$2l+1$ — pog'onachalar soni.

Klichkovskiy qoidasi:

1. Elektron pog'onachalarining elektronlar bilan to'lib borish ketma-ketligi ularning bosh va orbital kvant sonlar yig'indisi $(n+l)$ qiymati ortib borish tartibida bo'ladi.

2. Agar bir necha pog'onacha uchun n va l qiymatlari yig'indisi bir xil bo'lsa, bunday pog'onachalar chegarasida elektronlar joylashishi bosh kvant sonining ortib borishi tartibida bo'ladi.

Gund qoidasi. Atomda elektron spinlar yig'indisi maksimal qiymatga ega bo'lgan holatda atom energetik afzallikka ega bo'ladi.

Ionlanish energiyasi (I) atomlarning elektronlarini tortib olish uchun kerak bo'lgan minimal energiya miqdoridir:

$$X + I \rightarrow X^+ + E.$$

Elektromanfiylik (EM) — molekula tarkibidagi atomning o'ziga bog'lovchi elektronni tortishi:

$$EM = \frac{I + E}{2}.$$

Bunda: I — atomning ionlanish energiyasi; E — atomning elektronga moyillik energiyasi.

Gibridlanish: sp; sp^2; sp^3; sp^3d; sp^3d^2;

H_2SO_4 molekulasida gibridlanish:

a) grafik formula yozamiz:



b) molekulada ikkita π bog' mavjud bo'lib, u π bog'ni hosil qilgan elektronlar gibridlanishda ishtirok etmaydi;

d) markaziy atomning valentligi VI ga teng;

e) uning VI valentli holati uchun elektron konfiguratsiyasini yozamiz:



f) oxirgi ikkita (d orbitaldagi) elektronlarni hisobga olmasa, demak, gibridlanish sp^3 holat kelib chiqadi.

Boshqa molekulalar gibridlanish turi ham xuddi shunday hisoblanadi.

KIMYOVIY REAKSIYALAR TERMODINAMIKASI

G.I. Gess qonuni (1840-y): reaksiyaning issiqlik effekti jarayonining qanday usullarda olib borilishiga bog'liq emas, balki reaksiyada ishtirok etayotgan moddalarning dastlabki va oxirgi holatiga bog'liq.

Termodinamikaning 1-qonuni: sistemaga berilgan issiqlik miqdori uning ichki energiyasining o'zgarishi (ΔU) va sistemaning tashqi kuchlar ustidan bajargan ishi (A) ga sarf bo'ladi:

$$\Delta U = U_2 - U_1 = Q - A.$$

Entalpiya — yunoncha «qizdiraman» so'zidan olingan.

$H = U + pV$

Bunda: p = bosim;

V = hajm;

U = ichki energiya.

Termodinamikaning 2-qonuni: muvozanat holatdagi har qanday sistema «Entropiya» nomli o'ziga xos holat funksiyasiga egaki, entropiyaning qaytar jarayonlarda o'zgarishi quyidagi $\Delta S = S_2 - S_1 = \frac{Q}{T}$ tenglama yordamida hisoblanadi.

Entropiya — moddada yuz berishi mumkin bo'lgan va uzluksiz o'zgarib turadigan holatlarni xarakterlovchi juda muhim funksiya.

Termodinamikaning 3-qonuni: barcha toza kristall moddalar entropiyalarining absolut qiymati 0 K (ya'ni — 273,15°C) ga yaqinlashganida nolga teng bo'ladi.

Gibbs energiyasi: G = H — TS bunda: H — entalpiya; S — entropiya.

KIMYOVIY REAKSIYA TEZLIGI

Vaqt birligi ichida konsentratsiya o'zgarishiga reaksiya tezligi deyiladi.

$\Delta C = C_2 - C_1$ (konsentratsiya farqi)

$\Delta t = t_2 - t_1$ (vaqtdagi farq)

$$\vartheta = \frac{\Delta C}{\Delta t} = -\frac{C_2 - C_1}{t_2 - t_1}; \qquad \vartheta = \frac{n}{V \cdot \Delta t}$$

Reaksiya tezligiga konsentratsiyaning ta'siri: kimyoviy reaksiya tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyalari ko'paytmasiga to'g'ri proporsionaldir.

$A \rightarrow B + C$ — tipdagi reaksiyalar uchun $\vartheta = K \cdot C_A$

$A + B \rightarrow C + D$ — tipdagi reaksiyalar uchun $\vartheta = K \cdot C_A \cdot C_B$

$2A + B \rightarrow C + D$ — tipdagi reaksiyalar uchun $\vartheta = K \cdot C_A^2 \cdot C_B$

ϑ — reaksiya tezligi; K — tezlik konstantasi(temperaturaga bog'liq); C_A, C_B — reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasi.

Vant-Goff qoidasi: har 10°C ga reaksiya temperaturasi oshirilsa, ushbu reaksiya tezligi 2—4 marta ortadi.

$$\vartheta t_2 = \vartheta t_1 \cdot \gamma^{\frac{t_2 - t_1}{10}}$$

$$\frac{\vartheta t_2}{\vartheta t_1} = \gamma^{\frac{t_2 - t_1}{10}}$$

Bunda: γ — reaksiya tezligining temperatura koeffitsiyenti;

t_2, t_1 — keyingi va dastlabki temperatura;

ϑt_2 = keyingi reaksiya tezligi;

ϑt_1 = oldingi reaksiya tezligi.

Katalizator — reaksiya tezligini o'zgartiradigan, lekin reaksiya natijasida kimyoviy jihatdan o'zgarmaydigan moddaga *katalizator* deyiladi.

Ingibitorlar — reaksiya tezligini pasaytiradigan moddalar manfiy katalizator yoki ingibitorlar deyiladi.

Promotorlar — katalizator kuchini oshiruvchi moddalar.

KIMYOVIY MUVOZANAT

$H_2 + J_2 \leftrightarrow 2HJ$

$\vartheta_1 = K_1 [H_2] \cdot [J_2]$; $\vartheta_2 = K_2 [HJ]^2$;

$\frac{K_1}{K_2} = K_M$ — muvozanat konstantasi

$$K_M = \frac{[HJ]^2}{[H_2][J_2]};$$

yoki

$aA + bB \leftrightarrow cC + dD$ reaksiya uchun

$$K_M = \frac{[C]^c \cdot [D]^d}{[A]^a \cdot [B]^b}$$

K_M — qiymati reaksiyaga kirishuvchi moddalarning tabiati va temperaturasiga bog'liq, lekin aralashmadagi moddalarning konsentratsiyasi, bosimi, begona qo'shimchalar ishtirok etish — etmasligiga bog'liq emas.

Le-Shatele (1884-y) prinsipi: kimyoviy muvozanatda turgan sistemada tashqi sharoitlardan biri (temperatura,

bosim, konsentratsiya) o'zgartirilsa, muvozanat tashqi o'zgarish ta'sirini kamaytiruvchi reaksiya tomonga boradi.

Konsentratsiya o'zgarishining ta'siri. Kimyoviy muvozanat holatida turgan sistemada moddalardan birining konsentratsiyasi orttirilsa, sistemada mumkin bo'lgan reaksiyalardan shunday reaksiya kuchayadiki, natijada konsentratsiyasi orttirilgan modda sarf bo'ladi.

Temperaturaning ta'siri. Muvozanatda turgan sistemaning temperaturasi o'zgarsa, temperatura ko'tarilganda sistemaning muvozanati issiqlik yutiladigan, temperatura pasaytirilganda esa issiqlik chiqadigan jarayon tomonga siljiydi.

Bosimning ta'siri. Muvozanatda turgan sistemaga bosim ta'sir qilinsa, muvozanat bosimni kamaytiradigan tomonga siljiydi, ya'ni hajm katta tomondan hajm kichik tomonga siljiydi.

Masalan: $N_2+3H_2 \rightleftarrows 2NH_3$ (P oshsa →, P kamaysa ←)

Katalizatorning ta'siri: muvozanatda turgan sistemaga katalizator ta'sir qilinsa, u muvozanat hosil bo'lishini tezlashtiradi, biroq muvozanatni siljitmaydi.

ERITMALAR VA ULARNING KONSENTRATSIYALARI

Erituvchi molekulalaridan va erigan modda zarralaridan tashkil topgan va ular orasida fizik va kimyoviy o'zaro ta'sir beradigan birjinsli sistemaga *eritma* deyiladi.

Berilgan temperaturada, berilgan moddaning erishi to'xtagan eritmani *to'yingan eritma*, qo'shimcha berilgan modda qo'shilganda erish davom etadigan eritma-*to'yinmagan eritma* deyiladi.

Erigan modda massasining eritma umumiy massasiga nisbati erigan moddaning *massa ulushi* deyiladi.

1. Foiz (%) konsentratsiya. 100 g eritmada erigan moddaning massasini (%)foizlarda ifodalanishi.

$$\omega\% = \frac{m(\text{er.modda})}{m(\text{eritma})} \cdot 100\% \quad \text{yoki} \quad \omega = \frac{m(\text{er.modda})}{m(\text{eritma})}$$

2. Molar konsentratsiya. 1 *l* (1000 ml) eritmada erigan moddaning mollar sonini bildiradi.

$C_M = \frac{n}{V_{(l)}}$ bunda: n — erigan modda miqdori; V_{ω} — eritma hajmi (litrda).

3. Normal konsentratsiya. 1 *l* (1000 ml) eritmada erigan moddaning ekvivalentlar sonini bildiradi.

$C_N = \frac{m \cdot 1000}{E \cdot V}$; bunda: E — erigan moddaning ekvivalent miqdori.

4. Molar konsentratsiya (mol/kg). 1 kg erituvchida erigan modda miqdorini bildiradi:

$$C_{\text{molar}} = \frac{n_{(\text{modda})}}{m_{(\text{erituvchi})}}.$$

5. Eritma titri. Eritmaning 1 millilitridagi erigan moddaning miqdori **titr** deb ataladi:

$$T = \frac{E \cdot N}{1000}.$$

6. Eruvchanlik. Ma'lum temperaturada ayni moddaning 100 g suvda erishi mumkin bo'lgan massasi, shu moddaning ayni temperaturadagi eruvchanligi deyiladi.

7. Foiz konsentratsiya va molar konsentratsiyaning bog'liqligi:

$$C_M = \frac{1000\,\omega \cdot \rho_{(\text{eritma})}}{M_{(\text{modda})}} \quad \text{yoki} \quad C_M = \frac{\omega\% \cdot \rho \cdot 10}{M}.$$

Bunda: ρ — eritma zichligi(g/ml); M — erigan modda molar massasi; ω — massa ulush; $\omega\%$ — foiz konsentratsiya.

ELEKTROLITIK DISSOTSILANISH, DISSOTSILANISH DARAJASI ELEKTROLITLAR. NOELEKTROIONLAR

Eritmalari elektr tokini o'tkazuvchi moddalar, elektrolitlar deyiladi. Elektrolitlarning ionlarga ajralish jarayoniga elektrolitik dissosiasiya deyiladi.

Eritmalari yoki suyuqlanmalari elektr tokini o'tkazmaydigan moddalar elektrolitlar (elektrolitmaslar deyiladi).

$AV \leftrightarrow A^+ + V^-$ (*kislota qoldig'i*

$K = \frac{[A^+][B^-]}{AB}$;

$AOH \leftrightarrow A^+ + OH^-$

A^+ — asos qoldig'i.

dissotsilanish konstantasi: $K = \frac{[A^+][OH^-]}{[AOH]}$

dissotsilanish darajasi: $\alpha = \frac{N'}{N}$

bunda: N' — dissotsilangan molekulalar soni;

N — umumiy molekulalar soni.

VODOROD KO'RSATKICH (pH)

Atomlarning bergan yoki olgan elektronlar soni shu atomning oksidlanish darajasi deyiladi.

$H_2O \leftrightarrow H^+ + OH^-$

$K = [H^+] \cdot [OH^-] = 1 \cdot 10^{-14}$; $t = 25°C$.

$[H^+] \cdot [OH^-] = 1 \cdot 10^{-14}$;

$[H^+] = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{[OH^-]}$

$pH = -\lg[H^+]$;

$pH < 7$ — kislotali muhit; $pH = 7$ — neytral muhit;

$pH > 7$ — ishqoriy muhit.

OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARI

Oksidlanish darajasi o'zgarishi bilan boradigan reaksiyalarga oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari deyiladi.

oksidlanish (qaytaruvchi)

-5 -4 -3 -2 -1 0 1 2 3 4 5 6 7 8

qaytarilish (oksidlovchi)

$2H_2 + O_2 \leftrightarrow 2H_2O$

$H_2^0 - 2\bar{e} = 2H^+$ oksidlanish (qaytaruvchi)

$O_2^0 + 4\bar{e} = 2O^{-2}$ qaytarilish (oksidlovchi)

OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARI TURLARI

Oksidlanish qaytarilish reaksiyalari 4 sinfga bo'linadi.

1. Atomlararo yoki molekulalararo oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari:

$$2H_2^0 + O_2^0 \rightarrow 2H_2^{+1}O^{-2}$$

$$S^0 + O_2^0 \rightarrow S^{+4}O_2^{-2}$$

$$Cu^0 + 4HN^{+5}O_3 \rightarrow Cu^{+2}(NO_3)_2 + 2N^{+4}O_2 + 2H_2O$$

$$2KMn^{+7}O_4 + 10Fe^{+2}SO_4 + 8H_2SO_4 \rightarrow$$

$$\rightarrow K_2SO_4 + 2Mn^{+2}SO_4 + 5Fe_2^{+3}(SO_4)_3 + 8H_2O$$

2. Ichki molekular oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.

$$2KCl^{+5}O_3^{-2} \xrightarrow{t} 2KCl^{-1} + 3O_2^0$$

$$2KMn^{+7}O_4^{-2} \xrightarrow{t} K_2Mn^{+6}O_4^{-2} + Mn^{+4}O_2 + O_2^0$$

3. Disproporsiyalanish reaksiyalari.

$$3S^0 + 6KOH = 2K_2S^{-2} + K_2\overset{+4}{S}O_3 + 3H_2O$$

$$3K_2Mn^{+6}O_4 + 2H_2O = 2KMn^{+7}O_4 + Mn^{+4}O_2 + 4KOH$$

$$Hg_2^{+1}O \xrightarrow{t} Hg^0 + Hg^{+2}O$$

$$3HN^{+3}O_2 = HN^{+5}O_3 + 2N^{+2}O + H_2O$$

4. Sinproporsiyalanish reaksiyalari.

$$N^{-3}H_4N^{+3}O_2 \xrightarrow{t} N_2^0 + 2H_2O$$

$$N^{-3}H_4N^{+5}O_3 \xrightarrow{t} N_2^{+1}O + 2H_2O$$

ELEKTROLIZ



Elektr toki ta'sirida boradigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga **elektroliz** deyiladi.

(−) katod, unda qaytarilish jarayoni boradi.

(+) anod, unda oksidlanish jarayoni boradi:

$$2NaCl \xrightarrow{el} 2Na^0 + Cl_2^0$$

(−) katod: $Na^+ + 1e^- = Na^0$

(+) anod: $2Cl^- - 2e^- = Cl_2$

Eritma elektrolizida katod (−) va anodda (+) ajraladigan moddalar quyidagi ikkita ketma-ketlikda keltirilgan.

Metallarning aktivlik qatori standart elektrod potensialini ortib borish tartibidan kelib chiqadi.

1) Metallarning aktivlik qatori:

Li, K, Ba, Sr, Ca, Na, Mg, Al, Mn, Zn, Cr, Fe, Cd, Co, Ni, Sn, Pb, H, Cu, Hg, Ag, Pt, Au ←

2) Kislota qoldiqlarining (+) anodda oksidlanish ketma-ketligi: J^-, Br^-, S^{-2}, Cl^- $[OH^-]$, CO_3^{-2}, PO_4^{-3}, NO_3^-. →

Elektroliz qonunlari.

1. **Faradeyning 1-qonuni:** elektroliz jarayonida elektrodda ajralib chiqadigan moddaning massa miqdori eritmadan o'tgan zaryad miqdoriga to'g'ri proporsional bo'ladi:

$$m = k \cdot q = k \cdot I \cdot t.$$

Bunda: I — tok kuchi; t — vaqt; k — elektrokimyoviy ekvivalent (eritma orqali 1 Kulon zaryad miqdori o'tganda ajralib chiqadigan modda massasi), q — zaryad miqdori.

2. **Faradeyning 2-qonuni.** Agar bir necha ketma-ket ulangan elektrolizyordagi eritmasi orqali bir xil miqdordagi elektr toki o'tkazilsa, elektrodlarda ajralib chiqadigan moddalarning massa miqdorlari o'sha moddalarning kimyoviy ekvivalentlariga proporsional bo'ladi:

$$k = \frac{1}{96500} \cdot E.$$

E — modda ekvivalenti.

Faradey soni F elektron zaryadini Avogadro soniga ko'paytmasiga teng: $F = N_A \cdot e^-$.

1- va 2-qonunlardan:

$m = \frac{E \cdot I \cdot t}{96500}$ ifoda kelib chiqadi, $I \cdot t = q$ bo'lsa, u holda $m = \frac{E \cdot q}{96500}$ bo'ladi.

Elektroliz jarayoni unumi:

$$\eta = \frac{m \cdot 96500}{E \cdot I \cdot t} \cdot 100\%$$

ANORGANIK KIMYO

VODOROD

Vodorod XVI asr boshlaridan ma'lum bo'lib, uning reaksiya natijasida ajralishini Paratsels, Van-Gelmont, Boyl, Mentou, Lemeri, Pristley va boshqalar kuzatganlar. 1766-yilda Kavendish uni kimyoviy element sifatida kashf etdi. Unga "Hydrogenium" nomini Lavuazye berdi, u grekchadan *xyudor* — suv va *gennao* — tug'diraman; suv tug'duruvchi degan ma'noni beradi.

Atom tuzilishi:



suyuq. tem.= −259°C
qay. tem. = −252,8°C

Izotoplari: Protiy — H_1^1, Deyteriy — D_1^2, Tritiy — T_1^3.

Olinishi:

1) $Zn + 2HCl = ZnCl_2 + H_2\uparrow$

2) $Zn + H_2SO_4 = ZnSO_4 + H_2\uparrow$

3) $Fe + H_2SO_4 = FeSO_4 + H_2\uparrow$

4) $2Al + 2NaOH + 6H_2O = 2N\,a[Al(OH)_4] + 3H_2\uparrow$

5) $2NaCl + 2H_2O \xrightarrow{\text{elektroliz}} H_2 + Cl_2 + 2NaOH$

Sanoatda olinishi:

1) $C + H_2O \xrightarrow{1000°C} CO + H_2\uparrow$

2) $CO + H_2O \xrightarrow{t} CO_2 + H_2 - 40\ kDj$

3) $3Fe + 4H_2O \xleftarrow{650\ \ 800°C} Fe_3O_4 + 4H_2$

Kimyoviy xossalari:

1) Galogenlar bilan reaksiyaga kirishib, vodorod galogenidlar hosil qiladi.

$H_2 + Cl_2 = 2HCl$ (J, Br, F). F bilan xona temperaturasidayoq birikadi.

2) Kislorodda yonib suv hosil qiladi.

$2H_2 + O_2 = 2H_2O$

3) $H_2 + S \xrightarrow{t,\ P,\ kat} H_2S$

4) $3H_2 + N_2 \xrightarrow{t,\ P,\ kat} 2NH_3$

5) Ishqoriy metallar bilan birikadi.

$H_2 + 2Na = 2NaH$ (Li; K)

6) $CuO + H_2 \rightarrow Cu + H_2O$

GIDRIDLAR

Metallarning vodorod bilan hosil qilgan birikmalariga **gidridlar** deyiladi.

Olinishi: 1) $2K + H_2 = 2KH$ (kaliy gidrid)

2) $Ca + H_2 = CaH_2$ (kalsiy gidrid)

Kimyoviy xossalari:

1. Gidridlar suv bilan birikib vodorod hosil qiladi.

1) $KH + H_2O = KOH + H_2\uparrow$

2) $CaH_2 + 2H_2O = Ca(OH)_2 + 2H_2\uparrow$

Suv — H_2O; molekulasi sp^3 — gibridlanish, 104,3° burchakka ega. H_2O — 1000°C dan yuqori temperaturada H_2 va O_2 ga parchalanadi: $2H_2O \overset{1000^\circ}{=} 2H_2 + O_2$.

Kimyoviy xossalari.

1) Ishqoriy metallar bilan: Li, Na, K, Rb, Cs, Fr.

$$2Na + 2H_2O = 2NaOH + H_2$$

2) Ishqoriy metallarning oksidlari bilan: Li_2O, Na_2O, K_2O, Rb_2O.

$$Na_2O + H_2O = 2NaOH$$

3) Kislotali oksidlar bilan: CO_2, P_2O_5, SO_2, SO_3.

$$N_2O_5 + H_2O = 2HNO_3$$

4) Tuzlar bilan: NaCl, Al_2S_3, KNO_3, $CuSO_4$.

$$Al_2S_3 + 6H_2O = 2Al(OH)_3 + 3H_2S$$

Vodorod peroksid. H_2O_2 H—O—O—H

Olinishi. Laboratoriyada bariy peroksidga sulfat kislota ta'sir ettirib olinadi:

$$BaO_2 + H_2SO_4 = H_2O_2 + BaSO_4$$

Kimyoviy xossalari:

1) Oltingugurt (IV) oksidini oksidlaydi:

$$SO_2+H_2O_2=H_2SO_4$$

2) MnO_2 ta'sirida parchalanadi:

$$2H_2O_2 \xrightarrow{MnO_2} 2H_2O + O_2\uparrow$$

3) KJ ni oksidlaydi:

$$2KJ + H_2O_2 + H_2SO_4 \rightarrow J_2 + K_2SO_4 + 2H_2O$$

4) $KMnO_4$ ni qaytaradi:

$$5H_2O_2 + 2KMnO_4 + 3H_2SO_4 \rightarrow 5O_2\uparrow + K_2SO_4 + 2MnSO_4 + 8H_2O$$

VII GURUH ASOSIY GURUHCHA ELEMENTLARI

VII guruh asosiy guruhcha elementlariga **galogen** (tuz hosil qiluvchi)**lar** deyiladi. Ularga F(ftor), Cl(xlor), Br(brom), J(jod) kiradi.

Tashqi qavatdagi elektron taqsimlanishi: n^2n^5sp

F—1886-yil, Muassam

Cl—1774-yil, Sheele

Br—1826-yil, Balar

J—1811-yil, Kurtua

Ftorning olinishi:

$2HF=H_2+F_2$. Buning uchun oson suyuqlanuvchan $KF\cdot 2HF$ dan foydalaniladi. U 100°C po'lat katod va grafit anoddan foydalaniladi, bunda anodda quyidagi reaksiya boradi:

$$A+: = 2\overline{F} - 2\bar{e} + F_2\uparrow$$

Xlorning olinishi. Uni osh tuzi eritmasini elektroliz qilib olinadi:

$$2NaCl + 2H_2O \xrightarrow{El.(Eritma)} H_2 + Cl_2 + 2NaO$$

Oksidlovchilar ta'sirida olinishi:

$MnO_2 + 4HCl \rightarrow MnCl_2 + Cl_2\uparrow + 2H_2O$

3. $2KMnO_4 + 16HCl \rightarrow 2MnCl_2 + 5Cl_2\uparrow + 2KCl + 8H_2O$

4. $K_2Cr_2O_7 + 14HCl \rightarrow 3Cl_2\uparrow + 2CrCl_3 + 2KCl + 7H_2O$

5. $KClO_3 + 6HCl \rightarrow 3Cl_2\uparrow + KCl + 3H_2O$

Bromning olinishi:

1. $Cl_2 + 2HBr \rightarrow Br_2 + 2HCl$

2. $MnO_2 + 4HBr \rightarrow MnBr_2 + Br_2 + 2H_2O$

3. $MnO_2 + 2KJ + 2H_2SO_4 \rightarrow J_2 + K_2SO_4 + MnSO_4 + 2H_2O$

Kimyoviy xossalari:

Ftor kuchli oksidlovchi hisoblanadi:

$2F_2 + 2H_2O \rightarrow 4HF + O_2$

$5F_2 + 2P \rightarrow 2PF_5\uparrow$

$3F_2 + S \rightarrow SF_6\uparrow$

Ftor azot va kislorod bilan bevosita birikmaydi.

Xlor bilan suvning o'zaro ta'siri:

$$Cl_2 + H_2O \leftrightarrow HCl + HClO\ ;$$

$$2Cl_2 + 2H_2O \xrightarrow{h\nu} 4HCl + O_2\uparrow$$

Ishqorlar bilan ta'siri:

$$Cl_2 + 2KOH \rightarrow KClO + H_2O + KCl$$

qaynoq eritmasi bilan:

$$3Cl_2 + 6KOH \xrightarrow{t^\circ} 5KCl + KClO_3 + 3H_2O$$

Xlorli ohak hosil bo'lishi:

$$Cl_2 + Ca(OH)_2 \rightarrow CaOCl_2 + H_2O$$

Calogenlarning metallar va metallmaslar bilan ta'siri:

$$2Na + Cl_2 = 2NaCl$$

$$2Fe + 3Cl_2 = 2FeCl_3$$

$2Al + 3J_2 = 2AlJ_3$

$2P + 3Cl_2 = 2PCl_3$

$2P + 5Br_2 = 2PBr_5$

$H_2S + Br_2 = S + 2HBr$

$HJ + Br_2 = J_2 + 2HBr$

$H_2S + J_2 = S + 2HJ$

$J_2 + SO_2 + 2H_2O = H_2SO_4 + 2HJ;$

Galogenlarning vodorodli hosilalari:

Olinishi:

1. HF-tuzlariga kuchli kislotalarning konsentrlangan eritmalari ta'sir ettirib olinadi:

$$CaF_2 + H_2SO_4 \xrightarrow{t^\circ} CaSO_4 + 2HF\uparrow$$

$$H_2 + F_2 = 2HF + Q$$

2. HCl tuzlariga kuchli kislotalarning konsentrlangan eritmalari ta'sir ettirib olinadi:

3. HBr — olinishi: $KBr_{(k)} + H_3PO_4 = HBr\uparrow + KH_2PO_4$

4. $PBr_3 + 3H_2O = H_3PO_3 + 3HBr\uparrow$

5. HJ — olinishi: $2P + 3J_2 + 6H_2O = 2H_3PO_3 + 6HJ\uparrow$

Galogenlarning kislorodli kislotalari va ularning olinishi:

1. $HClO$ — gipoxlorit kislota — sp^3 — gibridlanish
2. $HClO_2$ — xlorit kislota — sp^3 — gibridlanish
3. $HClO_3$ — xlorat kislota — sp^3 — gibridlanish
4. $HClO_4$ — perxlorat kislota — sp^3 — gibridlanish

Geometrik formulasi:

1. H—O—Cl

3.



2. $H-O-Cl=O$ 4. 

Olinishi:

1. $Cl_2+H_2O \leftrightarrow HCl+HClO$
2. $Ba(ClO_3)_2 + H_2SO_4 = 2HClO_3 + BaSO_4\downarrow$
3. $J_2 + 5Cl_2 + 6H_2O = 2HJO_3 + 10HCl$
4. $KClO_4 + H_2SO_4 = KHSO_4 + HClO_4$

Kimyoviy xossalari:

1. $HClO + KOH = KClO + H_2O$
2. $HClO_2 + KOH = KClO_2 + H_2O$
3. $HClO_3 + KOH = KClO_3 + H_2O$
4. $HClO_4 + KOH = KClO_4 + H_2O$
5. Yorug'lik nurida: $2HClO = 2HCl+O_2$
6. $2HI + HClO = I_2 + HCl + H_2O$
7. $6P + 5KClO_3 = 3P_2O_5 + 5KCl$
8. Katalizatorsiz qizdirilganda

$4KClO_3 = KCl + 3KClO_4$

Katalizatorli (MnO_2) qizdirilganda

$2KClO_3 = 2KCl + 3O_2$

9. $2HClO_4 + P_2O_5 = Cl_2O_7 + 2HPO_3$
10. Kuchli qizdirilganda $KClO_4$ quyidagi tenglama bo'yicha parchalanadi: $KClO_4 = KCl + 2O_2$

VI GURUHCHA ELEMENTLARI

Kislorod

Atom tuzilishi:

$1S^2\ 2S^2\ 2P^4$

Kislorod molekulasi — O_2

Maksimal valentligi — 4

